



DEHQONOBOD EGILMASI QUYI BO‘R YOTQIZIQLARINING LITOLOGIK-FATSIAL XUSUSIYATLARI

Jurayev Fazliddin Ochilxonovich

Qarshi davlat texnika universiteti

«Geologiya va konchilik ishi» kafedrası dotsenti

Аннотация. В данном тезисе обобщены литолого-фациальный состав, распространение и условия формирования нижнемеловых отложений в пределах Дехканабадского прогиба. Фациальный комплекс континентальных равнин подразделён на предгорно-пролювиальный и равнинно-долинный пояса. Проанализированы их основные литологические признаки, гранулометрические особенности и связь с полезными ископаемыми.

Ключевые слова: Дехканабадский прогиб, нижний мел, литология, фация, пролювиальный шлейф, равнинно-долинный пояс, конгломерат, песчаник, алевролит, минерализация.

Annotation. This thesis summarizes the lithological-facial composition, distribution, and formation conditions of the Lower Cretaceous deposits within the Dehkanabad depression. The facies complex of continental plains is divided into piedmont-proluvial and plain-valley belts. Their main lithological features, granulometric characteristics, and relationship with mineral resources are analyzed.

Keywords: Dehkanabad depression, Lower Cretaceous, lithology, facies, proluvial fan, plain-valley belt, conglomerate, sandstone, siltstone, mineralization.

Annotatsiya. Ushbu tezisdа Dehqonobod egilmasi hududida quyi bo‘r davri yotqiziqlarining litologik-fatsial tarkibi, tarqalishi va shakllanish sharoitlari umumlashtirildi. Quruqlik tekisliklari fatsial kompleksi tog‘oldi yoyilma hamda tekislik-vodiy kamarlariga ajratilib, ularning asosiy litologik belgilari, granulometrik xususiyatlari va foydali qazilmalar bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.



Kalit soʻzlar: Dehqonobod egilmasi, quyi boʻr, litologiya, fatsiya, yoyilma, tekislik-vodiy kamari, konglomerat, qumtosh, alevrolit, maʼdanlashuv.

Quyi boʻr yotqiziqlarining litologik-fatsial tahlili Janubiy Oʻzbekiston geologiyasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Dehqonobod egilmasi hududidagi karabil, olmurod va qiziltosh svitalari kesimlari paleogeografik muhitni qayta tiklash, choʻkindi toʻplanish sharoitlarini baholash hamda ular bilan bogʻliq maʼdanlashuvni aniqlashda asosiy manba hisoblanadi.

Oʻrganilayotgan hudud quyi boʻr davrida faol denudatsiya, eroziya bazisi gradiyentlarining oʻzgarishi va togʻoldi hamda vodiy muhitlarida choʻkindilar toʻplanishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli kesimlarda dagʻal boʻlakli konglomeratlardan tortib mayda donali qumtosh, alevrolit va gilli jinslargacha boʻlgan turli litofatsiyalar uchraydi. Bu jinslar fatsial zonalar boʻyicha izchil ajralishi bilan Dehqonobod egilmasining geologik rivojlanish bosqichlarini yoritish imkonini beradi.

Tezisning maqsadi — berilgan geologik materiallar asosida Dehqonobod egilmasi quyi boʻr yotqiziqlarining asosiy fatsial komplekslarini tavsiflash, ularning joylashuv qonuniyatlari va litologik tarkibini umumlashtirishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usuli. Tadqiqot uchun hududdagi Pachkamar–Oyqoʻton–Langar–Xontaxta–Chaqchar hamda Chalka–Oqbosh–Oqrabot–Terakli–Yuqori Machay yoʻnalishlari boʻyicha tuzilgan litologik-fatsial paleokesimlar, ochilmalar tavsifi va svitalar kesimlaridagi litologik maʼlumotlar asos qilib olindi. Materiallar stratigrafik, litologik, granulometrik va fatsial tahlil usullari yordamida umumlashtirildi.

Fatsiyalarni ajratishda jinslarning donalik darajasi, saralanish xususiyati, rangi, qatlamlanish turlari, linzasimon tuzilishi, sement tarkibi, organik qoldiqlar va maʼdanlashuv belgilariga eʼtibor qaratildi. Shu asosda quyi boʻr yotqiziqlari quruqlik tekisliklari fatsial kompleksi tarkibidagi togʻoldi yoyilma va tekislik-vodiy kamarlariga ajratildi.



Natijalar va muhokama. Dehqonobod egilmasi quyi bo‘r yotqiziqlari shakllanish davrida hosil bo‘lgan quruqlik tekisliklari fatsial kompleksi ikkita yirik kamar: tog‘oldi yoyilma va tekislik-vodiy kamarlari bilan ifodalanadi. Tog‘oldi yoyilma kamari asosan Yakkabog‘ va Chaqchar tog‘ ko‘tarilmalari atrofida keng rivojlangan bo‘lib, uning hosilalari karabil, olmurod va qiziltosh svitalari kesimlarida kuzatiladi.

Tog‘oldi yoyilma kamari cho‘kindilarida yomon saralangan konglomeratlar, gravelitlar, shag‘alli qumtoshlar, turli donali qumtoshlar va qumli alevrolitlar ustunlik qiladi. Ularning rangi ko‘p hollarda qizil-qo‘ng‘ir, qo‘ng‘ir-qizil va g‘isht-qizil tuslarda bo‘ladi. Qalinligi ayrim joylarda bir necha metrdan o‘nlab metrlargacha yetadi. Bu belgilar cho‘kindilarning qisqa masofada tashilgani, tog‘oldi oqimlari energiyasining yuqori bo‘lgani va materialning tez to‘planganini ko‘rsatadi.

Yoyilmasimon-aralash zona o‘rganilayotgan hududning shimoliy kesmalarida, jumladan, Chaqchar va Zarvas maydonlarida aniq ajralib turadi. Bu yerda saralanmagan har xil toshli konglomeratlar va valunli brekchiyalar keng tarqalgan. Bo‘laklar tarkibida kvars, kremniy, metamorfik slanetslar, ohaktosh, dolomit va marmarlar, shuningdek, qizil-qo‘ng‘ir gilli-alevritli jinslar uchraydi. Bo‘laklarning ko‘pincha burchakli yoki yarim yumaloq bo‘lishi ularning kam qayta ishlanganligini anglatadi.

Yoyilmasimon-bo‘lakli fatsial zona Chaqchar, Oqbuloqgaz, Zarvas va Shurason maydonlarida keng tarqalgan. U konussimon yoyilmalar shleyfi bilan bog‘liq bo‘lib, ehtimol, Paleolangar, Paleog‘uzor va Paleo‘ra daryolari tizimlarining asosiy tog‘oldi o‘zanlari ta’sirida shakllangan. Bu zonada gravelitlar va qumtoshlar asosiy jins turlarini tashkil etadi; ularning yomon saralanishi, linzasimon qatlamlanishi va qiyshiq teksturalari o‘zgaruvchan oqim muhitini aks ettiradi.

Yoyilmasimon-mayda donali zona bo‘lakli zonaga subparallel holda Chaqchar paleoko‘tarilmasini keng tasma sifatida o‘rab turadi. Unda mayda shag‘al



va graviy aralashmali qum-alevrit-gilli qatlamlar ustunlik qiladi. Jinslarning qizg'ish-jigar, jigar va ba'zan kulrang-yashil dog'li bo'lishi oksidlanish sharoitidagi kontinental muhit bilan bog'liq. Bu zona energiyasi nisbatan pastroq oqimlar va yoyilmaning chekka qismlarida cho'kindi to'planishi bilan izohlanadi.

Tekislik-vodiy fatsial kamari Dehqonobod egilmasining katta qismida, asosan yuqori karabil kichik svitasi, qiziltosh svitasi va shimoliy hududlarda kaligrek svitasi hajmida ajratiladi. Langardaryo, G'uzordaryo va O'radaryo paleovodiylari ushbu davrda akkumulyativ tekislikning o'rta qismida joylashgan bo'lib, ularning suv yig'ish havzalari Hisor paleoko'tarilmasi bilan bog'liq bo'lgan.

Tekislik-o'zanli bo'lakli zonada qiyshiq qatlamli qumtoshlar, gravelitlar, qumli alevrolitlar, gillar va shag'alli konglomeratlarning linzasimon qatlamlari uchraydi. Yuqori karabil kichik svitasining yuqori qismidagi konglomerat va gravelitlar ko'p hollarda qamrab olgan jinslar bilan bir yoshdagi qumli-gilli jinslar bo'laklaridan tashkil topgan. Bu holat o'zan ichidagi qayta yuvilish va qayta to'planish jarayonlari faol bo'lganini ko'rsatadi.

Dehqonobod hududida konglomeratli-qumli va qum-alevrolitli jinslarning uchta asosiy rivojlanish polasasi ajratiladi: Tyubegatan–Konsoy–Oqrabot–Past Machay yo'nalishi; Do'konxona–Qaranko'l–Kulqamish–Babasurak–Oyqo'ton yo'nalishi; Zarmas–Shurason maydonlari yo'nalishi. Ushbu polasalar paleodaryo o'zanlari va ularning tarmoqlari bilan bog'liq bo'lib, sharqdan g'arbga yo'nalgan keng paleovodiy tizimini ko'rsatadi.

Tekislik-qayir zonasi cho'kindilari yuqori karabil, qiziltosh va olmurod svitalarining ayrim qismlarida rivojlangan. Bu yotqiziqlar suv toshqini davrlarida daryo o'zanidan chiqqan suvlar tomonidan vodiy qayirlarida to'plangan. Natijada mayda qiyshiq qatlamlar, diagonal va to'lqinsimon ryab teksturalari, archasimon qiyshiq qatlamlanish shakllari paydo bo'lgan. Bunday teksturalar suv oqimining yo'nalishi tez-tez o'zgarganini va qayir muhitidagi sust dinamikani ifodalaydi.



Fatsial zonalar bilan foydali qazilmalarning bog‘liqligi alohida ahamiyatga ega. Yoyilmasimon-bo‘lakli fatsiya kamari jinslari bilan mis va rux minerallashuvi, shuningdek, ayrim maydonlarda kumush va kobaltning yuqori konsentratsiyasi qayd etilgan. Qiziltosh svitasining tekislik-qayir zonasi alevrolitlari va mayda donali qumtoshlarida esa mis ma‘danlashuvi hamda kumushning yuqori klarkli qiymatlari aniqlangan. Bu holat fatsial tahlilning nafaqat paleogeografik, balki prognoz-izlov ishlari uchun ham muhimligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Dehqonobod egilmasi quyi bo‘r yotqiziqlari kontinental sharoitda, tog‘oldi yoyilma va tekislik-vodiy muhitlarida shakllangan murakkab fatsial kompleksdan iborat. Tog‘oldi yoyilma kamarida dag‘al bo‘lakli, yomon saralangan konglomeratlar, gravelitlar va shag‘alli qumtoshlar ustun bo‘lib, ular yuqori energiyali oqimlar ta‘sirida to‘plangan. Tekislik-vodiy kamari esa o‘zan, qayir va mayda donali akkumulyativ muhitlarni ifodalovchi qumtosh, alevrolit va gilli jinslar bilan xarakterlanadi.

Fatsial zonalarining litologik belgilari, qatlamlanish xususiyatlari va tarqalish yo‘nalishlari quyi bo‘r davrida hududda paleodaryo tizimlari faol bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim fatsial zonalar bilan mis, rux, kumush va kobalt minerallashuvining bog‘liqligi Dehqonobod egilmasi quyi bo‘r yotqiziqlarini keyingi geologik-qidiruv ishlarida istiqbolli obyekt sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazimova Z.M., Shvetsova YE.M., Bogomolova A.M. Stratigrafiya nijnemelovix otlojeniy Uzbekistana // Uzbekskiy geologicheskiy jurnal. – 1989. – №1. – S. 21–26.
2. Abdullayev G.S., Djalilov G.G., Xayitov N.SH., Sharafutdinova L.P., Chinikulov X. Teorii litogeneza. – Tashkent: GP «Institut mineralnix resursov», 2017. – S. 24–27.



3. Babayev A.G. Litologiya, paleogeografiya i neftegazonosnost melovix otlojeniy Zapadnogo Uzbekistana. – Tashkent: Izd-vo AN RUz, 1959. – S. 11.
4. Babayev A.G., Akramxodjayev A.M. Paleogeografiya neftegazonosnix melovix otlojeniy Uzbekistana. – Tashkent: Izd-vo AN RUz, 1961. – S. 21–24.
5. Yejova A.V. Praktikum po litologii. – Tomsk: Izd-vo Tomskogo politexnicheskogo universiteta, 2011. – S. 41.
6. Jurayev F.O., Norinov F.K. Glubinniye seysmogeologicheskiye usloviya Beshkentskogo progiba // Aktualniye nauchniye issledovaniya v sovremennom mire. – 2019. – Vip. 5(49), ch. 1. – S. 83–86.